

Хо‘jalik shartnomasi yuzasidan yuridik ekspertiza

XULOSAsi

«XOSIL NEO MED» OILAVIY KORXONASI va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasida 2021-yil 10-dekabrda 11-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi loyihasi taqdim qilingan.

1. Shartnoma predmetiga ko‘ra, Karmana tuman tibbiyot birlashmasi va «XOSIL NEO MED» OILAVIY KORXONASI o‘rtasida bo‘lib, shartnoma shartiga asosan ishlar, xizmatlar ko‘rsatish (**tibbiy buyumlarni zararsizlantirish**) belgilangan.

2. Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Mazkur qonunning 4-moddasiga muvofiq: “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. xo‘jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi; 2. taraflarning o‘zaro manfaatdorligi; 3. shartnoma intizomiga rioya etish; 4. taraflarning o‘zaro mulkiy javobgarligi” belgilab qo‘yilgan.

3. «XOSIL NEO MED» OILAVIY KORXONASI va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasidagi 2021-yil 10-dekabrda 11-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni talablari doirasida belgilangan.

4. «XOSIL NEO MED» OILAVIY KORXONASI va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasidagi 2021-yil 10-dekabrda 11-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi taraflarning javobgarligi me‘yori va nizolarni hal etish tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni talablari doirasida belgilangan.

XULOSA

1. «XOSIL NEO MED» OILAVIY KORXONASI va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasida 2021-yil 10-dekabrda 11-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni talablari doirasida tuzilgan bo‘lib, taraflar ushbu shartnomaga muvofiq fuqarolik huquqiy munosabatga kirishishlari va faoliyat olib borishlari mumkin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori ilovasi “Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)” ro‘yxatidagi: “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha dori vositalari va tibbiyotda qo‘llaniladigan buyumlar.” bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni keyinchalik ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni **shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 kundan kechiktirmasdan** davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarorida “Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)” ko‘rsatilgan bo‘lib, tanlovlarsiz shartnoma tuzilishi nazarda tutilgan bo‘lsada, xo‘jalik yurituvchi subyektning **shartnoma tuzilishiga ehtiyojlarini asoslab berishi kerak**. Shartnomani tuzish uchun asoslarni ilova qilmaslik xo‘jalik shartnomasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazmasdan rad etishlikni talab etadi. Mazkur xo‘jalik shartnomasi **istisno tarqasida huquqiy ekspertizadan** o‘tkazildi.

